



UDC (ЎУК, УДК): 372.881.111.1

*Nilufar MAMATQULOVA,*  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, PhD*  
*E-mail: n.mamatqulova@uzswlu.uz*

*Pedagogika fanlari nomzodi N.Niyazova tairizi asosida*

### KREAM STRATEGIYASIDA KREATIVLIKNING O'RNI VA MOHIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kreativlik va ijodkorlik tushunchalarining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Bir nechta mahalliy va xorijiy olimlari tadqiqotlariga asoslanib, kreativlikning mohiyati, uni ijodkorlikdan farqlovchi jihatlari hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada kreativlikning KREAM strategiyasidagi o'rni, xususan, filolog talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishdagi roli ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, KREAM strategiyasi, divergent tafakkur, til ta'limi, innovatsion yondashuv, filologik ta'lim, ijodiy fikrlash.

### THE ROLE AND ESSENCE OF CREATIVITY IN CREAM STRATEGY

Annotation

This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the concepts of creativity. Based on the research of several local and foreign scientists, the essence of creativity, its distinguishing features from creativeness, and its importance in the educational process are highlighted. The article also shows the role of creativity in the CREAM strategy, in particular, its role in the development of creative competence in philological students.

**Key words:** Creativity, KREAM strategy, divergent thinking, language education, innovative approach, philological education, creative thinking.

### РОЛЬ И СУТЬ КРЕАТИВНОСТИ В СТРАТЕГИИ КРЕАМ

Аннотация

В статье анализируются научно-теоретические основы концепции креативности. На основе исследований ряда отечественных и зарубежных учёных раскрываются сущность креативности, её отличительные черты от креативности и значение в образовательном процессе. Также в статье показана роль креативности в стратегии CREAM, в частности, её роль в развитии креативной компетентности студентов-филологов.

**Ключевые слова:** Креативность, стратегия KREAM, дивергентное мышление, языковое образование, инновационный подход, филологическое образование, креативное мышление.

**Kirish.** Kreativlik yoki ijodkorlik, umuman olganda bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lishiga qaramasdan ayrim farqlari mavjud. Rus olimlari "kreativnost" (kreativnost) va "tvorchestvo" (tvorchestvo) tushunchalari orasida farqlarni quyidagicha sanab o'tishgan.

L.Shishkinaga ko'ra bugungi kunda "kreativlik" so'zi avvalgi davrlarda "taraqqiyot" (XVIII-XIX asrlar) va "ijodkorlik" (XX asr) so'zlari egallagan o'rinni egallagan, ya'ni "zamonamizning asosiy tushunchasi" deb atash mumkin. Bu tushuncha zamonaviy madaniyatning biznes, siyosat, fan, san'at kabi ko'plab sohalarida keng qo'llaniladi. Lug'atlarda "kreativlik" shaxsning ijodiy qobiliyatlari, mutlaqo yangi g'oyalarni ilgari surishga tayyorligi, muammolarni hal qilishda odatiy fikrlash doirasidan chiqib, yangicha va asosli yechimlarni topish layoqati, iqtidorning tarkibiy qismi sifatida ta'riflanadi. Ijodkorlik shaxsiy, o'ziga xos jihatlari bilan chambarchas bog'liqdir. U insonning shu paytgacha moddiy olamda mavjud bo'lmagan, makon va zamonda yashovchi, xalqning ma'naviy kamoloti va har bir insonning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiluvchi noyob narsalarni yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Shishkina tadqiqotchi M.Kuznetsovaning fikriga tayanib ta'kidlashicha "madaniyatdagi o'zgarishlar faqatgina ijodkor odam tafayli yuzaga keladi, lekin bu o'zgarishlar hammaga tushunarli shaklda yetkaziladi. Ijodkorlikni madaniyatda ko'rish uchun u butunlay yangi bo'lishi (ontologik va gnoseologik), odamlar

uchun foydali bo'lishi (aksiologik) va chiroyli bajarilgan bo'lishi kerak (prakseologik va estetik). Ijodkorlik - bu insonning dunyoga bo'lgan munosabatini ko'rsatish usuli. Ijod qilish shunchaki narsa yasash emas, balki inson va dunyo o'rtasidagi aloqani o'zgartirishdir" degan qarashlarini tahlil qilib ijodkorlik ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ham ega deya bayon qilgan.

**Asosiy qism.** Chen Nyanszuning ishida "kreativlik" tushunchasini qanday tushunish kerakligi haqidagi savollar o'rganiladi. U psixologiya, tilshunoslik, pedagogika kabi fanlarning fikrlarini o'rganib chiqib, shunday xulosaga keladi: kreativlik hamma har xil tushunadigan tushuncha, ko'pincha psixologlar va pedagoglar ishlatishadi, odamning aqliy qobiliyatlari yoki ijod qilish qobiliyati bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, "lingvokreativlik" tushunchasi ham shunday talqin qilinadi: lingvokreativlik - bu odamning ma'lum bir vaziyatda foydali gapirish qobiliyati. Bunda u nafaqat til qoidalariga mos keladigan, balki o'zining shaxsiy tasavvurlari asosida, asosiy til birliklaridan foydalangan holda, til qoidalarini buzib bo'lsa ham yaratilgan so'zlarni tanlaydi.

Kottrell ta'kidlashicha kreativlik ayniqsa, yangi topshiriqlarning dastlabki bosqichlarida g'oyalarni shakllantirish uchun muhimdir. Qaysi ijodiy g'oyalardan foydalanishni baholash uchun keyinroq mantiqiy yondashuvlardan foydalanish mumkin. Ijodkorlikka to'squinlik qiladigan "bu vaqtni behuda sarflashdir", "bu yosh bolaga hos",

“men qila olmayman”, “men ijodkor emasman”, “bu mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi” kabi bir qator tushuncha va fikrlar kreativ bo‘lishga imkon bermaydi. Ammo biz har bir vaziyatdan va holatdan to‘g‘ri va samarali foydalangan holda, ijodkorlikni rivojlantiruvchi ba‘zi yondashuvlardan foydalanishimiz kerak.

Hyunheye Cho va Hoe Keung Kimlar bayon qilishicha kreativlik ko‘pincha narsalarni idrok etish va turlicha fikrlashning yangi usullarini anglatadi. Kreativlik hammada kundalik tildan foydalanishda kuzatiladi. Shuning uchun, ingliz tilini xorijiy til sifatida (EFL) o‘qitish sinflariga til o‘qituvchilari o‘z darslariga talabalar kreativligiga e‘tibor qaratishlari juda muhimdir. Til ijodkorligi hazillardan tortib adabiy uslublar va metaforalarga qadar oddiy muhitlarda tilning qo‘llanilishini o‘z ichiga oladi.

Maslou kreativlikni barchada tug‘ma mavjud bo‘lgan ijodiy moyillik deb hisoblagan. Ammo, uning fikricha, ko‘pchilik odamlar mavjud tarbiya tizimi tufayli bu qobiliyatni yo‘qotadi, uni faqatgina yuqori natijalarga erishgan ozchiliklarga saqlab qoladi.

Hernán A. Avila ta‘limdagi kreativlik mohiyatini muhokama qiladi va Nayman (1998), Lannon (2000), Mey (1994) nuqtai nazarlarini taqqoslaydi. Avilaga ko‘ra Nayman kreativlikni tasavvuriy g‘oyalarni haqiqatga aylantirish jarayoni deb ta‘riflaydi, bu ikki bosqichli jarayon bo‘lib, avval fikrlash, so‘ngra mahsulot yaratishdan iborat. Shu bilan birga, Lannon bunga qo‘shiladi, lekin bu jarayonning siklik xususiyatini ta‘kidlab, natijalarni aks ettirish keyingi harakatlarni amalga oshirish uchun muhim ekanligini ta‘kidlaydi. Mey ijodkorlik madaniyatga yangilik kiritishni, ehtiros va sadoqatni talab qilishni va shu bilan birga yuqori darajadagi xabardorlik va yangi nuqtai nazarlarni keltirib chiqarishni o‘z ichiga oladi degan fikrni qo‘shadi. Hernán A. Avila bu fikrlarni umumlashtirib, samarali ta‘lim talabalarning ehtiyojlarini qondirish va innovatsiyani rivojlantirish uchun g‘oya yaratish, amalga oshirish va natijalarni aks ettirishning uzluksiz aylanishini talab qilishini ta‘kidlaydi.

Çelik & Tümen Akyıldızga ko‘ra ingliz tilini o‘qitishda kreativlikni rivojlantirish boshqa jabhalardagiga nisbatan muhimroq hisoblanadi, chunki bu o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish va uni tabiiy va samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan kognitiv va affektiv jihatdan jalb qilinishi uchun juda muhim. O‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, shuningdek, to‘rtta til ko‘nikmasini rivojlantirish ularning kelajakda yanada muvaffaqiyatli va tayyor shaxslar bo‘lishlariga yordam beradi. Til o‘rganish jarayoniga kreativlikning integratsiyalanishi juda muhim ahamiyatga ega.

Til o‘rganish darslarida kreativlikni targ‘ib qilish tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari, innovatsiyalar va o‘quvchilarning faol ishtirokini oshiradi. Darsda kreativlikdan foydalanish talabalarda yuqori darajada fikrlash tarzini rivojlantiradi, o‘ziga ishonchni kuchaytiradi va o‘quvchilarni hayotiy muammolarga tayyorlaydi. Ijodkorlikni rag‘batlantirish o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash, o‘zgarishlarga moslashish va muammolarga yangi nuqtai nazardan yondashish imkonini beradi. Til o‘rganishda kreativ yondashish qiziqishni uyg‘otadi, muloqot ko‘nikmalarini yaxshilaydi va o‘rganishga bo‘lgan ishtiroqni kuchaytiradi. Bundan tashqari, ijodkorlik individuallikni, hamkorlikni va kognitiv rivojlanishni ham oshiradi deya ta‘kidlaydi Yussif.

Gilford ijodkorlikning ko‘plab xususiyatlarini o‘rgangan, ammo oxir-oqibat diqqatini faqat bitta xususiyatga – divergent tafakkurga – ijodkorlikning asosi deb hisoblab, shu yo‘nalishga qaratgan. Keyinchalik, 1981-yilda Torrens Gilfordning ishidan ilhomlanib, ijodkorlikni divergent tafakkur orqali baholash uchun bir qator testlarni yaratgan. Torrens ijodiy fikrlash testini ishlab chiqqan amerikalik psixolog, kreativlik deganda muammolarni teran his qilish, ularni

aniqlash va hal etish yo‘llarini izlash, o‘ziga xoslik va ko‘plab g‘oyalarni yaratish olish qobiliyatini tushungan.

Hozirgi kunda Torrens testlari ijodkorlikni o‘lchash uchun keng qo‘llaniladi. Ular divergent tafakkurning to‘rtta turli qirralariga e‘tibor qaratadi:

Ijodiy ravonlik: Ko‘p sonli g‘oyalarni osonlikcha o‘ylab topish qobiliyati.

Ijodiy moslashuvchanlik: Turli xil g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati.

Originallik: Noyob va o‘zgacha g‘oyalarni yaratish qobiliyati.

Tafsilot: G‘oyalarni batafsil tushuntirish va asoslash qobiliyati.

Rod Ellisning bayon qilishicha, ijodkor shaxslar va til o‘rganish jarayoni o‘rtasida o‘zaro aloqa mavjud. Bu shuni anglatadiki, bir tomondan, ijodiy qobiliyati yuqori bo‘lgan insonlar tilni osonroq o‘zlashtiradilar. Boshqa tomondan, til o‘rganish jarayoni insonning ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirishi mumkin.

Garchi bugungi kunda til o‘qitishda kommunikativ metod, xususan, vazifaga asoslangan o‘qitish keng tarqalgan bo‘lsa-da, ushbu o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganuvchi ilmiy ishlar ko‘p emasligi ajablanarli. Xulosa qilinishicha, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari qat‘iy nazorat qilinadigan mashqlardan ko‘ra, erkin muloqot qilish imkoniyati berilganda ko‘proq namoyon bo‘ladi va bu muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, soha mutaxassislarining fikriga ko‘ra, yangi tilni o‘rganish insonning ijodkorligini oshiradi, chunki bu jarayon o‘quvchilarni o‘z madaniy dunyoqarashlarini qayta shakllantirishga undaydi.

Ellisga ko‘ra til o‘yinlari xorijiy tilni o‘zlashtirishda ijodiy yondashuvning asosi bo‘lishi mumkin. Bu jarayon tilni tahlil qilishda qo‘llaniladigan kognitiv amallarni (o‘chirish, almashtirish, qo‘shish, qayta tartiblash) o‘z ichiga oladi. Eng muhimi, til o‘yinlarida bu amallar o‘quvchilar tomonidan boshqariladi va ularning nazorati ostida bo‘ladi. O‘quvchilar o‘z vaziyatlariga qarab, ushbu amallarni spontan ravishda qo‘llashlari mumkin yoki tilni mustaqil ravishda o‘zgartirish imkonini beruvchi mashqlar orqali ularga yo‘naltirilishi mumkin.

Jonesning fikricha, til ta‘limida ijodkorlik muhim bo‘lib, bu dars uslublarining yanada ijodiy bo‘lishi, ijodiy matnlardan foydalanish yoki o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga rag‘batlantirishni anglatadi va ushbu tushuncha yillar davomida ta‘lim nazariyotchilari, hukumat idoralari va biznes yetakchilari tomonidan qo‘llab-quvvatlab kelingan. Biroq, ijodiy til foydalanuvchisi bo‘lish nimani anglatishi nazariy jihatdan chuqur tahlil qilinmaydi, aksincha, muhokamalar asosan tilning tabiiy ijodiyli, ikki tillilikning ijodkorlikka ta‘sir yoki zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o‘qitish usullariga qaratilgan. Shuningdek, ijodkorlik tushunchasi ko‘pincha madaniy va ta‘limiy kontekstdan ajratilgan holda talqin qilinib, haqiqiy ta‘lim muhitlarida unga qarshilik ko‘rsatilishi yoki yetarlicha qadrlanmasligi ham mumkin.

Tin she‘r yozish kabi ijodiy topshiriqlar orqali til o‘yinlarini rag‘batlantirish va shu bilan birga o‘rganish uchun qulay sharoit (“affordances”) yaratish mumkinligini ko‘rsatib beradi. Tinning fikricha, ijodiy topshiriqlarda yangi ma‘nolarni yaratish ehtiyoji til o‘rganuvchilarda murakkab til ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, chunki bu jarayon til bo‘laklarini ajratish, qayta tahlil qilish va analogiya qilishni talab qiladi.

Yuqoridagi tariflardan xulosa qiladigan bo‘lsak kreativlik kengroq tushuncha bo‘lib, yangi va noyob g‘oyalarni o‘ylab topish qobiliyatini anglatadi. Kreativlik yangi narsalarni tasavvur qilish, muammolarga noodatiy yechimlar topish va mavjud narsalarga yangicha nazar bilan qarashni o‘z ichiga

oladi. Bu jarayon ko'proq ichki, ya'ni fikrlash va tasavvur qilish bilan bog'liq. Ijodkorlik "kreativlik" tushunchasining amaliy jihati hisoblanadi. Ijodkorlik deganda kreativ g'oyalarni amalda ro'yobga chiqarish, yangi narsalarni yaratish tushuniladi. Bu jarayon tashqi, ya'ni amaliy harakatlar bilan bog'liq. Masalan, rassomning rasm chizishi, yozuvchining kitob yozishi, bastakorning musiqa yaratishi ijodkorlikning namunasi.

Farqi qisqacha qilib quyidagicha ifodalash mumkin:

Kreativlik - bu qobiliyat (yangi g'oyalarni o'ylab topish).

Ijodkorlik - bu faoliyat (kreativ g'oyalarni amalda qo'llash).

Misol uchun biror kishi g'ildirakni qayta ixtiro qilish uchun yangi va noyob g'oyaga ega bo'lishi mumkin (kreativlik).

Lekin u bu g'oyani amalda qo'llab, yangi turdagi g'ildirakni yasab chiqarmaguncha, bu ijodkorlikka aylanmaydi.

Kreativlik - bu ijodkorlikning asosi. Ijodkorlik esa kreativ g'oyalarning hayotdagi ifodasidir. Ikkalasi bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar bo'lib, odatda birgalikda ishlatiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, KREAM strategiyasining "K" - Kreativlik komponenti talabalarda yangicha fikrlash, muammolarga noodatiy yondashish, o'z fikrini erkin ifodalash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv til o'rganish jarayonini yanada samarali, faol va shaxsga yo'naltirilgan qiladi. Kreativlikni rivojlantirish orqali talabalar nafaqat til kompetensiyalarini, balki tanqidiy fikrlash, innovatsion yondashuv va madaniy moslashuv qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Shunday qilib, kreativlik komponenti KREAM strategiyasining poydevori bo'lib, filologik ta'limda o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini ochishda muhim o'rin tutadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Avila, H. A. (2015). Creativity in the English class: Activities to promote EFL learning. *HOW*, 22(2), 91-103
2. Çelik, V. & Tümen Akyıldız, S. (2021). Creativity in EFL Classes: Examining Turkish Secondary School Teachers' Attitudes and Thoughts. *International Online Journal of Education and Teaching (IOJET)*, 8(3). 2007-2027.
3. Cho, Hyunhee & Kim, Hoe Kyeung. (2018). Promoting creativity through language play in EFL classrooms. *TESOL Journal*. 9. 1-9. 10.1002/tesj.416.
4. Cottrell, S. *The Study Skills Handbook*, 4th edition, Palgrave Macmillan. 2013
5. Ellis, R. (2008). *The study of second language acquisition* (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press;
6. Fayzullakulovna, Mamatkulova. (2024). Cream Strategy and Its Crucial Role In Foreign Language Learning. *Jurnal ISO: Jurnal Ilmu Sosial, Politik dan Humaniora*. 4. 10.53697/iso.v4i2.2166.
7. Guilford, J.P. (1959). Three faces of intellect. *American Psychologist*, 14, 469-479;
8. Jones Rodney, Richards Jack. (2016) *Creativity in Language Teaching: Perspectives from Research and Practice*
9. Jones, R. (2019) *Creativity in language learning and teaching: translanguaging practices and transcultural identities*. *Applied Linguistics Review*. ISSN 1868-6311 doi: <https://doi.org/10.1515/applirev-2018-0114> Available at <http://centaur.reading.ac.uk/81519/> murojaat sanasi 26.03.2025
10. Mamatkulova N.F. Oliy ta'limda KREAM strategiyasi yordamida darslarni tashkil etishning prinsiplari va usullari // *The Lingua Spectrum*. – 2025. – № 4 (aprel).
11. Maslow A.-H. *New boundaries of a human nature [Novye rubezhi chelovecheskoi prirody]*. M., 2011.
12. Tin, T.B. (2011). Language creativity and co-emergence of form and meaning in creative writing tasks. *Applied Linguistics*, 32, 215-235.
13. Torrance, E.P. (1981). Empirical validation of criterion referenced indicators of creative ability through a longitudinal study. *Creative Child and Adult Quarterly*, 6, 136-140.
14. Yussif. (2024). 13 Importance of Creativity in the Classroom. retrieved from <https://classroommanagementexpert.com/blog/importance-of-creativity-in-the-classroom/#:~:text=Creativity%20in%20the%20classroom%20enhances,approach%20problems%20with%20fresh%20perspectives>
15. Л.И.Шишкина. (2015). Креативность и творчество: соотношение понятий. *Управленческое Консультирование* №4. 176-182.
16. Чэнь Няньцзу. Лингвокреативный потенциал языковой игры в обучении русскому языку как иностранному. Автореф. кан. пед. наук. — Казан. 2022. — 24с.